

OILAVIY BIZNESNING ASOSIY TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Mamadjanov Jahongir G‘ayratovich

OOO Deloitte MCHJ Direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy tadbirkorlik faoliyati, oilaviy tadbirkorlikning asosiy turlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, operatsion tuzilmalari va ular duch keladigan muammolar oilaviy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni va uning doimiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan strategiyalar haqida har tomonlama tushunchalar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Qonun, oilaviy tadbirkorlik, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, yalpi ichki mahsulot, diversifikatsiya, korxona, raqobat, ishlab chiqarish, moliyaviy resurs.

Oilaviy tadbirkorlik O‘zbekistonning iqtisodiy tizimida muhim o‘rin tutadi, xalqning madaniy va tarixiy an‘analarida chuqur ildiz otgan. Konsepsiya oila a‘zolari tomonidan boshlangan va boshqariladigan daromad olish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston hukumati ushbu sohaning ahamiyatini e‘tirof etgan holda, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish, bu orqali ularning o‘ssishi va rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalashuviga ko‘maklashish bo‘yicha turli qonunchilik choralari amalga oshirdi.

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni bilan mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, unda oilaviy tadbirkorlik faoliyatining tamoyillari va shakllari belgilab berilgan. Qonunga muvofiq, oilaviy tadbirkorlik oilaviy korxona deb ataladigan yuridik shaxs tashkil etish yo‘li bilan ham, yakka tartibdagi oilaviy tadbirkorlik deb ataladigan yuridik shaxs tashkil etmasdan ham amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi kunda oilaviy biznesning asosiy turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Hunarmandchilik va kasanachilik – uning asosiy xususiyatlari sifatida asosan qo‘l mehnati va an‘anaviy usullarga asoslangan, oila a‘zolari tomonidan uy sharoitida amalga oshiriladigan, milliy qadriyatlar va madaniyatni saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydigan hamda do‘ppido‘zlik, zargarlik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, gilamdo‘zlik kabi sohalarni o‘z ichiga oladigan rasmiy registratsiya qilingan yoki norasmiy shaklda bo‘lishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari.

Qishloq xo‘jaligi va dehqon xo‘jaliklari – oila a‘zolari tomonidan boshqariladi va mehnat resurslaridan unumli foydalanadi, dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorva-chilik va parrandachilik asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish imkoniyati mavjud, ichki bozorda va eksportda muhim ahamiyatga ega, davlat tomonidan subsidiyalar va imtiyozli kreditlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Savdo va chakana biznes – oilaviy do‘konlar, mini-marketlar va savdo rastalarini o‘z ichiga oladi. Oila a‘zolari birgalikda boshqarib, mijozlar bilan bevosita ishlaydi, ko‘pincha mahalliy aholi ehtiyojlariga moslashtirilgan, kam sarmoya talab qiladi va tez foyda olish imkonini beradi, raqobat yuqori bo‘lishi sababli marketing va xizmat ko‘rsatish sifati muhim ahamiyatga ega.

Xizmat ko‘rsatish sohasi – restoran, kafelar, tikuvchilik ustaxonalari, go‘zallik salonlari va transport xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Oila a‘zolari o‘z kasbiy mahoratiga tayanib, mijozlarga xizmat ko‘rsatadi, ko‘pincha iste‘molchilarning individual ehtiyojlariga yo‘naltirilgan hamda innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish biznesni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, bu faoliyat turlari davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari orqali rivojlantirilmoqda.

Kichik ishlab chiqarish korxonalari – oziq-ovqat, qurilish materiallari, mebel, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Bunday korxonalar mahalliy xomashyo va resurslardan samarali foydalanadi, oila a‘zolari turli jarayonlarda ishtirok etib, iqtisodiy barqarorlikka erishadi, kichik biznes kreditlari va soliq imtiyozlari orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Bu kabi oilaviy korxonalarning mahsulotlari ichki bozorga qaratilgan bo‘lsada, ularda o‘z mahsulotlarini eksportga yo‘naltirish imkoniyati ham mavjud.

Axborot texnologiyalari va onlayn biznes – hozirgi kunda axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda onlayn biznes bilan shug‘ullanuvchilar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Bu raqamli marketing, onlayn savdo, freelancing, IT xizmatlar va dasturiy ta‘minot ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi va moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvni talab qiladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanganlar internet orqali global bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lib, bunda avvalo, sarmoya kam talab etilsada, lekin texnologik bilim va malaka zarur bo‘ladi, raqobat kuchli, kreativ yondashuv va sifatli xizmat asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Oilaviy biznes iqtisodiyotning turli sohalarida muhim rol o‘ynaydi. Ular tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va milliy iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hukumat tomonidan kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar oilaviy biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ularning barqaror o‘sishiga zamin yaratmoqda.

Oilaviy korxonalar yuridik shaxs sifatida, odatda, oila a‘zolari birgalikda kompaniyaga egalik qiladigan va boshqaradigan kichik biznes hisoblanadi. Bu korxonalar yagona nizom asosida faoliyat yuritib, davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi, ularga rasmiy tan olinishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning turli shakllaridan foydalanish imkoniyati beriladi. Boshqa tomondan esa, yakka tartibdagi oilaviy tadbirkorlik oila a‘zolariga alohida yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish imkonini beradi, ro‘yxatga olish jarayonini soddalashtiradi va ma‘muriy yuklarni kamaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashti-rishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 19-apreldagi 161-son qarorlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida tadbirkorlik tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirish chora-tadbirlari, aholining barqaror daromad manbalarini ko‘paytirish maqsadida kreditlar ajratishni ko‘paytirishga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, ushbu me‘yoriy hujjatlar oilaviy tadbirkorlikning rivoji uchun qulay sharoit yaratadi.

Oilaviy tadbirkorlik qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, savdo va xizmat ko‘rsatish kabi turli sohalarni qamrab olgan. Oilaviy biznesning har bir turi tarmoqning tabiati, rasmiyatchilik darajasi va oilaning ishtiroki darajasi bilan shakllanadigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu farqlarni tushunish siyosatchi-lar, moliya institutlari va qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlar uchun yordamni samarali tarzda moslashtirish uchun juda muhimdir.

Oilaviy tadbirkorlikning asosiy turlarini o‘rganish, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, operatsion tuzilmalari va ular duch keladigan muammolarni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu jihatlar orqali oilaviy tadbirkorlikning O‘zbekiston iqtisodiyotida tutgan o‘rni va uning doimiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan strategiyalar haqida har tomonlama tushunchaga ega bo‘lish mumkin.

Qonunga ko‘ra, oilaviy tadbirkorlik deganda, oila a‘zolarining umumiy qarashlarga ega bo‘lgan va o‘zaro maqsadlar yo‘lida birgalikda harakat qiladigan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Oilaviy biznes uzoq yillik an‘anaga ega bo‘lib, ko‘pincha oila a‘zolari o‘rtasidagi yaqin munosabatlar bilan ajralib turadi. Bu korxonalar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan, qishloq xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yuritib, aholi bandligini ta‘minlash va turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy biznesning asosiy qadriyatlari odatda asoschidan kelib chiqib, keyingi avlodlar tomonidan mustahkamlanadi. Bu esa, uzoq umr va barqarorlikni qadrlay-digan tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu qadriyatlarni saqlab qolgan korxonalar uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishi ehtimoli yuqori.

Oilaviy tadbirkorlik iqtisodiyotda muhim o‘rin tutib, sanoat va xizmat ko‘rsatish sektorining muhim qismini tashkil etadi. Ushbu korxonalar yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahsuldorlikni oshirish va qashshoqlikni kamaytirishda katta rol o‘ynaydi.

Biroq, ushbu sohada hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar ham mavjud. Xususan, startaplar uchun kredit olish qiyinligi va tashqi bozorlarga chiqishdagi raqobat sharoitlari oilaviy biznes uchun jiddiy to‘siqlar bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, xotin-qizlarning oilaviy

tadbirkorlikdagi faolligini oshirish ham dolzarb masala bo'lib, ayniqsa, chekka hududlardagi ayollarni ish bilan ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Oilaviy tadbirkorlik ish o'rinlari yaratishga va umumiy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyrt turidan olingan daromad tarmoqlar bo'yicha notekis taqsimlansa-da, umumiy natija ijobiy bo'lib, yalpi talab va taklifning oshishiga xizmat qilmoqda.

2022-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti 5,7 foizga, 2023-yilda esa, 6 foizga o'sdi. Mikrobiznes va hunarmandchilikni rivojlantirishda oilaviy korxonalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jahon amaliyotida kichik va o'rta biznes (shu jumladan, oilaviy korxonalar) rivojlangan iqtisodiyotlarda ish o'rinlarining 70-80 foizini ta'minlaydi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida har yili 1 milliard dollardan ortiq mablag' ajratilib, mikrofirmalarni rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy dasturlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) O'zbekistonning iqtisodiy istiqbollariga optimistik baho berib, davlat va xususiy sektor islohotlari tufayli kelgusi yillarda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari kutilayotganini ta'kidlamoqda. Jumladan, 2024-yilda YaIM 5,4 foiz, 2025-yilda 5,5 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda.

Hukumatning faol yondashuvi hududiy miqyosda oilaviy tadbirkorlik dasturlarini rivojlantirish uchun mas'ul shaxslarni tayinlash, tadbirkorlarni kompleks qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Yangi tadbirkorlarning paydo bo'lishi, ayrim tarmoqlarda raqobatning kuchayishi va logistika muammo-lariga qaramay, mamlakatimizda oilaviy biznes iqtisodiy barqarorlik va farovonlikni oshirish yo'lida muhim vositalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikning kelajakdagi istiqbollari juda ijobiy ko'rinishga ega, ayniqsa, mamlakat bozorga yo'naltirilgan muhitni shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar va strategiyalarni amalga oshirmoqda. Hukumat oilaviy tadbirkorlikni iqtisodiy o'sishning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etib, uni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Qonunchilikka muvofiq, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslari belgilab berilgan bo'lib, bu korxonalarning barqaror rivojlanishi va milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuvi uchun muhim zamin yaratadi.

So'nggi yillarda iqtisodiy siyosatning liberallashtirilishi, xususan, moliya va bank sektoridagi islohotlar oilaviy tadbirkorlikning o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, turizm, farmatsevtika va yengil sanoat sohalarida faoliyat yurituvchi oilaviy korxonalar uchun soliq imtiyozlari, kreditlarni to'lash muddatlarini uzaytirish va moliyaviy resurslardan foydalanishni osonlashtirishga qaratilgan dasturlar joriy qilindi. Ushbu tashabbuslar bozorga kirish va moliyaviy resurslardan foydalanishdagi qiyinchiliklarga duch kelayotgan oilaviy tadbirkorlar uchun yanada qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarning kirib kelishi natijasida bozor raqobati kuchayib bormoqda. Bu esa, oilaviy biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ish o'rinlarini ko'paytirish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, investitsion faollik sezilarli darajada ortdi. 2023-yilda sarmoyalar o'sish sur'ati 22,1 foizni tashkil etdi.

Bunday investitsion muhit oilaviy korxonalar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki talab va raqobat ortishi ular faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va modernizatsiya qilishga undaydi. Umuman olganda, oilaviy tadbirkorlik rivojlanish uchun mustahkam huquqiy asos va qulay iqtisodiy sharoitlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga va jamiyat farovonligiga xizmat qilmoqda.

Hunarmandchilik va kasanachilik oilaviy bizneslarida an'anaviy kasblar saqlanib qolgan, qishloq xo'jaligi esa, tabiiy resurslardan samarali foydalanishga asoslangan. Savdo va chakana biznes ko'pincha mahalliy ehtiyojlarga moslashgan bo'lsa, xizmat ko'rsatish sohasi mijozlarga yuqori sifatli xizmat taqdim etishga qaratilgan. Kichik ishlab chiqarish korxonalari oila a'zolarining kooperatsiyasi orqali raqobatbardosh mahsulotlar yaratadi, axborot texnologiyalari va onlayn biznes esa innovatsiyalarni joriy etishga asoslanadi.

Umumiy xususiyatlar shundan iboratki, oilaviy biznesning barcha turlari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Uning rivojlanishi davlat tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va sarmoyaviy tashabbuslar bilan yanada tezlashmoqda. Shuningdek, oilaviy biznes iqtisodiyotda innovatsiya-larni joriy etish, raqobatni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonuni. № O'RQ-327-son, T.: O'zbekiston, 2012-yil 26-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillash-tirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, №PQ-149, 02.04.2024.
3. «How many family businesses operate in Uzbekistan?». (2024). *UzDaily.uz*. <https://www.uzdaily.uz/en/how-many-family-businesses-operate-in-uzbekistan-05-01-2024/>.
4. «Family Entrepreneurship Development Programs». *Mikrokreditbank*. <https://mkbank.uz/en/family-programs/>.
5. «Loans are provided at a rate of 14 percent for the development of family entrepreneurship». (2024). *UzDaily.uz*. <https://www.uzdaily.uz/en/loans-are-provided-at-a-rate-of-14-percent-for-the-development-of-family-entrepreneurship/>.
6. Xasanovich, H. A., & Axadjon o'g'li, A. A. ISLOMIY INVESTITSIIYA FONDRLARI VA ULARNI BOSHQARISH.

7. Rashidovich, X. M., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). ISLOM MOLIIYASIDA RISKNI MINIMALLASHTIRISH. "ISLOM INVESTITSIIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA, (8-1), 122.
8. Xusanovich, A. O., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). IV-YO 'NALISH: ISLOM MOLIIYASIDA FAOLIYAT KO'RSATUVCHI MUTAXASSISLAR TAYYORLASH: OLIY TA'LIM MUASSASALARI BILAN ILMIY HAMKORLIK ISLOM MOLIIYASIDA FAOLIYAT KO'RSATUVCHI MUTAXASSISLAR TAYYORLASH. "ISLOM INVESTITSIIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA, 109.
9. Axadjon o'g'li, A. A., & Murotovich, M. F. (2023). RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT SIYOSATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 294-298.
10. Muratovich, M. F., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 237-240.
11. Axadjon o'g'li, A. A. (2024). MAMLAKAT IQTISODIYOTINING O 'SISHIDA FDI NING ROLI. University Research Base, 691-694.
12. Axadjon o'g'li, A. A., & Murotovich, M. F. (2024). O 'ZBEKISTON KELAJAGINI SHAKLLANTIRISHDA JSTNING HAL QILUVCHI ROLI: MINTAQALAR BO 'YICHA BARQAROR VA INKLYUZIV RIVOJLANISH. University Research Base, 498-502.
13. Mulaydinov, F. (2024). Application, place and future of digital technologies in the educational system. Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali.
14. Jumanova, S. (2024). Analysis of PISA test results in Uzbekistan and prospects of preparing primary education students for PISA test. Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali.
15. Axadjon o'g'li, A. A., & Tursunboy o'g'li, N. J. (2023). SANOATNING YAIMGA TA'SIRINI BAHOLASH. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 290-293.
16. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHDAGI O 'RNI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 271-273.
17. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). ZAMONAVIIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 333-338.
18. Xusanovich, A. O. (2023). MALAYZIIYADA ISLOMIY MOLIIYA, TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIIYALAR VA IQTISODIY RIVOJLANISH O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING EKONOMETRIK TAHLILI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN TAVSIYALAR. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 60-64.
19. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 159-162.
20. Turanboyev, B., & Abdullayev, A. (2023). DAVLAT, KORXONA VA

TASHKILOTLAR BYUDJETINI TO ‘G ‘RI TAQSIMLASH TENDENSIYALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 304-309.

21. Azamjon o‘g‘li, U. A., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). Sun‘iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi. *Qo ‘qon universiteti xabarnomasi*, 1, 73-75.

22. Ahrorjon, A., & Gafurov, X. (2023). IQTISODIY SIYOSATNING RIVOJLANISHIDA FISKAL VA PUL-KREDIT SIYOSATI. *Qo ‘qon universiteti xabarnomasi*, 310-313.

23. Otto, M., & Thornton, J. (2023). CHATGPTNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI: SUN’IY INTELLEKTNING KASBIY MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 65-71.

24. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). ISLAMIC FINANCE PROBLEMS AND SOLUTIONS: Study guide. *AMAZON PUBLICATION* ISBN-13: 9798863282282, 1, 200.

25. Axrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). TA’LIM SIFATI OSHISHIDA JSTNING O ‘RNI. *YANGI O ‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(1), 113-118.

26. Akhmadjonov, O. X. (2023). ISLOMIY MOLIYA BARQARORLIK OMILLARI: EKONOMETRIK TAHLILLAR VA DALILLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9), 74-94.

27. Tursunboy o‘g‘li, N. J., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). O ‘zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a’zo bo ‘lish uchun uzoq yo ‘li va xitoy tajribasi. *Qo ‘qon universiteti xabarnomasi*, 1, 43-47.

28. Акабирходжаева, Д. Р., & Абдуллаев, А. А. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ НА РАЗВИТИЕ МИРОВОГО ФИНАНСОВОГО РЫНКА. *Экономика и социум*, (11-1 (126)), 729-739.

29. Akabirxodjayeva, D., & Abdullayev, A. (2024). TEXNOLOGIK INNOVATSIYALARNING JAHON MOLIYA BOZORINING RIVOJLANISHIGA TA’SIRI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 89-96.

30. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ISLOM MOLIYASI. *Qo ‘qon universiteti xabarnomasi*, 188-190.

31. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.

32. Abdullaev, A., & Odilova, M. (2024). The Role of WTO in Improving the Quality of Education. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 140-148.

33. Axadjon o‘g‘li, A. A., & Sabirovna, G. G. (2025). JSTGA A’ZO BO ‘LISHNING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI. *ZAMIN ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(5), 101-108